

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI



**«ZAMONAVTY TILSHUNOSLIK YO'NALISHLARI VA CHET
TILLARINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR»**

MAVZUSIDAGI XALQARO II MIY-AMALIY ANJUMAN



**«СОВРЕМЕННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ЯЗЫКОЗНАНИЯ И
ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В ОБУЧЕНИИ
ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ»**

МАТЕРИАЛЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ



**“MODERN TRENDS IN LINGUISTICS AND INNOVATIVE
APPROACHES TO TEACHING FOREIGN LANGUAGES”**

PROCEEDINGS INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE



ANDIJON-2024. 10-IYUN

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI



«ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK YO'NALISHLARI VA CHET
TILLARINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR»

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN



«СОВРЕМЕННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ЯЗЫКОЗНАНИЯ И
ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В ОБУЧЕНИИ
ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ»

МАТЕРИАЛЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ



“MODERN TRENDS IN LINGUISTICS AND INNOVATIVE
APPROACHES TO TEACHING FOREIGN LANGUAGES”
PROCEEDINGS INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL
CONFERENCE

2024-YIL 10-IYUN

ANDIJON – 2024

Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 18-yanvardagi “2024-yilga mo‘ljallangan xalqaro va respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 16-sonli buyrug‘i, shuningdek, mamlakat ilm-fani nufuzini yanada oshirish va xalqaro ilmiy-texnik hamkorlik ko‘lamini kengaytirishga qaratilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlar, simpozium, kongress, seminarlar va boshqa ilmiy hamda ilmiy-texnik tadbirlarni yuqori ilmiy va tashkiliy amaliy darajada samarali o‘tkazilishini ta‘minlash maqsadida Andijon davlat chet tillari institutida “Ingliz tili nazariy aspektlari”, “Ingliz tili va adabiyoti” hamda “Ingliz tili amaliyoti” kafedralari tomonidan “Zamonaviy tilshunoslik yo‘nalishlari va chet tillarini o‘qitishda innovatsion yondashuvlar” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o‘tkazildi.

Mas‘ul muharrir(lar):

f.f.n., prof. S.O.Solijonov

Tahrir hay‘ati:

f.f.d.prof. D.A.Rustamov
f.f.d.prof. M.I.Umarxo‘djayev
PhD. dots. M.A.Qurbonov
f.f.d.prof. G‘.M.Xoshimov
f.f.d.prof. V.A.Vositov
PhD. dots. M.G‘.Xoshimov
p.f.n. prof. Sh.S.Alimov
PhD. G.M.Ibragimova
PhD. Q.Umrzakov
kafedra o‘qituvchisi N.Xamidov
kafedra o‘qituvchisi Z.No‘monova

Tahrir nashriyoti bo‘limi muharriri:

A.A.Xomidov

Ilmiy-amaliy konferensiya materiallariga oid mazkur to‘plam, tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlari va chet tillarini o‘qitishdagi innovatsion yondashuvlar hamda ulardagi dolzarb masalalarga bag‘ishlanligi bilan ahamiyatlidir.

Mazkur to‘plamdan respublika va xorijiy oliy ta‘lim muassasalarida hamda ilmiy-tadqiqot markazlarida faoliyat olib borayotgan olimlar, professor-o‘qituvchilar, doktorantlar, magistrlar va iqtidorli talabalarning ilmiy maqolalari joy olgan.

To‘plamga kiritilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma‘lumotlar va me‘yoriy hujjatlar sanasining to‘g‘riligiga mualliflarning o‘zlari mas‘uldirlar.

Andijon davlat chet tillari instituti, 2024-yil

Through her words, she/he lets students express their thoughts by letting them know that they are finishing their thoughts. *Facial expressions* are a huge part of non-verbal communication. We all know how much information can be conveyed with a single smile or wink. We usually notice a person's experiences long before we hear their words. Although *non-verbal communication and behavior* varies greatly between *cultures*, the *facial expressions* of joy, sadness, anger and fear are the same for people living in different parts of the world. It's important to keep our hands open at all times. When we communicate, our gestures should align with our words, aiding in the clear expression of our thoughts to the listener.[2]

By using various hand movements while speaking, we aim to communicate our thoughts and viewpoints to students, capturing their attention and encouraging active listening. This practice not only helps us concentrate our thoughts but also fosters the generation of new ideas.

Motivation is key. Show genuine appreciation for your students' efforts as they progress through the lesson. Actively engage in the class by nodding in agreement and using positive gestures like thumbs up or expressions like "cool" and "bless you". By demonstrating that they are on the right track, you will boost their confidence and encourage them to continue on their path.

Smiling is a crucial element as well. Students establish stronger connections with teachers who genuinely enjoy being with them, have a passion for teaching, and aim to foster that enthusiasm. By placing greater emphasis on non-verbal communication in the classroom and greeting them with a smile, we can effectively convey knowledge and become adept at understanding and meeting our students' needs.

References:

1. Ignatyeva Nadezhda Yurievna "Non verbal means of communication in teaching students of foreign speech in modern communicative field" Балтийский гуманитарный журнал. 2016. Т. 5. № 4(17)
2. Нурматова Мамлакатхон. Мулоқот ва муомала психологияси. Самарқанд 2016й
3. Джаббарова, З. (2021). VARIOUS DEFINITIONS OF THE TERM "LITOTES" IN THE LINGUISTIC LITERATURE. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 4(3)
4. Хайдарова, Н. Т. (2023). ФАКТОРЫ ЖЕСТОВ И ЯЗЫКА МУЖЧИН И ЖЕНЩИН В РАЗНОСИСТЕМНЫХ ЯЗЫКАХ. JOURNAL OF LANGUAGE AND LINGUISTICS, 6(4), 380-384.

NOVERBAL MULOQOTNI O'RGANISHNING AHAMIYATI

Yaqubjonova Ro‘zixon Mirkomil qizi
ADChTi, Ingliz tili va adabiyoti kafedrası o‘qituvchisi
yaqubjonovaruzixon@gmail.com
Mirolimova Rahnamo Davronbek qizi
ADChTi, 303-guruh talabasi
Mirolimovarahnoma@gmail.com

Annotatsiya: Zamonaviy davrda olimlar og'zaki bo'lmagan muloqotning ahamiyati bilan qiziqishmoqda. Har bir millat va madaniyatda imo-ishoralar har xil ma'noga ega. Ushbu maqolada biz imo-ishoralarni o'rganish muhimligiga e'tibor qaratamiz.

Kalit so'zlar: nutq, verbal muloqot, imo-ishoralar.

Insonning nutq faoliyati inson ongining barcha qirralari bilan chambarchas bog'langan. Nutq – inson psixik kamolotining, shaxs sifatida shakllanishining qudratli omilidir.[1] Nutq ta'siri ostida qarashlar, e'tiqodlar, intellektual, ma'naviy va estetik hissiyotlar tarkib topadi, iroda va fe'l-atvor shakllanadi. Nutq yordamida barcha bilishga oid psixik jarayonlar erkin va boshqariladigan tus oladi. Shunday ekan, nutq – bilishga oid psixik jarayon bo'lib, inson tomonidan talaffuz qilinayotgan va eshitib turilgan tovushlar uyg'unligidan iborat, ayni vaqtda shu tovushlarga mos yozuv belgilari tizimi orqali ifodalangan ma'no va mazmunga ega. Nutq muloqot vositasi sifatida bir vaqtning o'zida ham axborot manbai sifatida, ham suhbatdosh bilan o'zaro ta'sirlashuv vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Buyuk shoir Sa'diy aytganidek: «aqling bormi yoki yo'q, buyukmisan yo kichik, biz bilmaymiz, sen bir so'z atamaguningcha».[2]

Verbal (nutq) muloqot tarkibiga: so'zlar, iboralar ma'nosi va mohiyati kiradi. Asosiy o'rinni so'zning qo'llanilish aniqligi, uning ifodalanishi va hammabopligi, tovushlar, so'zlar talaffuzi, ohang ifodasi va mohiyati egallaydi. Nutqdagi tovush hodisalari: nutq jadalligi, tovush balandligi modulyasiyasi, tovush toni, nutq vazni, tovush sifati, ohangi, aniqligidan iborat. Tovush sifatining ifodalanishi: o'ziga xos maxsus tovushlar: kulgu, hiqillash, yig'i, pichirlash, xo'rsinishlar va boshqalar; ajratuvchi tovushlar – bu yo'tal; ahamiyatsiz tovushlar – tanaffuslar, shuningdek, nazalizatsiya tovushlari – «xm, xm», «e-e-e», «o-o-o» va boshqalar.

Tadqiqotlarga ko'ra, odam kommunikatsiyasining har kungi aktida so'zlar – 7%, tovush va ifodalar – 38%, nutqiy bo'lmagan o'zaro ta'sir – 53%ni tashkil etadi. Publitsiy aytganidek: «ovoz orqali gaplashamiz, butun tanamiz orqali suhbatlashamiz».

Mimika, nigoh, imo-ishoralar – noverbal muloqotning eng ko'p ma'lumot olish mumkin bo'lgan vositalari hisoblanadi. Peshona, qoshlar, og'iz, ko'zlar, burun, iyak- bu yuz qismlari insonning asosiy hissiyotlari: hijron, g'azab, shodlik, ajablanish, qo'rqinch, nafrat, baxt, qiziqish, qayg'u va boshqalarni ifodalaydi. Garchi, noverbal muloqot turli mamlakatlarda turlicha bo'lsada, yuz ifodasidagi ya'ni mimika orqali ko'rsatiladigan hissiyotlar butun dunyoda bir xil. Tahlil natijalariga ko'ra, odatda insonning boshini pastga egib olish harakatini ruhiy tushkunlikka tushganida, aybiga iqror bo'lganda yoki xafaxonlikni ifoda etish jarayonida kuzatishimiz mumkin. Lekin boshni pastga egish orqali nafaqat uyalish, aybiga iqrorlik yoki xafalik, balki chuqur o'yga borish, diqqatini jalb qilish, afsuslanish va ta'zim qilish ma'nolarini ham anglatadi. Masalan, boshni biroz pastga engashtirish harakatini muloqotga qiziqish bilan qarayotgan tinglovchi tomonidan ham kuzatsa bo'ladi, aks holda u boshini biroz ortga tashlash yoki qo'llari yordamida boshi, sochlari, qulog'i, jag'i, burni, qovog'i yoki tananing boshqa qismlariga teginishi orqali suhbatga bo'lgan befarqligini ifodalagan bo'lardi. Ayniqsa, ushbu holat muloqot qilishda yuzini o'girish harakatida yaqqol

seziladi. Mazkur vaziyat barcha tillar uchun xos bo'lib, ularga insonning yuz qismidan tashqari, ko'z, qosh, lablar, peshona va boshqa tana a'zolarini ham kiritsak bo'ladi. Chunki inson yuzi 10 ga yaqin tana a'zolaridan tashkil topgan. Kommunikantlar suhbatda aynan inson yuzidagi xotirjamlik yoki tashvish alomatlari yordamida muloqot qilishni davom ettirish yoki ettirmaslikni belgilab oladi.

Inson yuzini qalbni aks ettiruvchi oynaga o'xshatishadi. Bu bejiz emas, albatta, chunki yuzdagi ko'z, qosh va og'izning harakatlari jahl, quvonch, qo'rquv va hayratlanish kabi inson emotsional holatlarini ifodalaydi. Jumladan, I.Yildirimning aytishicha, yuz tananing ruhidir. Dilimizdagi har bir harakat, tuyg'u va hayajon yuz orqali ifodalanadi[3]

Tadqiqotchilarning fikricha, yuqorida keltirilgan komponentlar orasidan tana harakati (ayniqsa, yuzdagi ifodalar va imo-ishoralar), ko'z harakatlari, muloqotda masofa va gavdaning holati kabi harakatlar mazmun -mohiyatini yaxshi tushunib olish va katta ehtimol bilan ularning madaniyatga to'g'ri kelmasligini anglab yetish kerak. Ular milliy madaniyat va tilning tarkibiy qismini belgilab berayotganligi sababli, noverbal muloqotni o'rganayotganlar tabiiy tildan foydalanishni yaxshilash, ravon suhbatlashish va o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish bilan madaniyatlararo tushunmovchilikka tushib qolishdan saqlanish lozim.[4]

Muzokaralar yoki chet elga xizmat safari arafasida har bir kishi, albatta, boradigan mamlakatining imo ishoralari qanday ma'no anglatishini albatta o'rganib olishi kerak. Uchrashuv chog'ida o'ziga tanish bo'lmagan imo-ishoralardan foydalanib, suhbatdoshni xafa qilishi, turli xil tushunmovchiliklar kelib chiqishi mumkin va natijada suhbatdoshni fikri o'sha shaxsga nisbatan salbiy bo'lib qolishligi, ayrim holatlarda bu jiddiy muzokarlarni buzishilishiga ham sabab bo'lishi mumkin. Inglizlar ko'pincha o'z fikrlari va his-tuyg'ulari uchun og'zaki bo'lmagan muloqotdan ya'ni imo ishoralardan foydalanadilar. Misol uchun ko'rsatkich barmoq va o'rta barmoq bilan qilingan agar bu kaft bilan boshqa odamga va qo'lning orqa tomoni bilan inson o'ziga qaratilgan bo'lsa, V shakli "ikki", "tinchlik" yoki "g'alaba" degan ma'noni anglatadi. Biroq agar qo'lni qo'lning orqa tomoni boshqa odamga qaratadigan qilib aylantirilsa, bu juda qo'pol ishora. Ushbu turdagi V belgisi quyida tushuntirilgan o'rta barmoq imo-ishorasiga o'xshaydi, lekin ko'pincha tajovuzkorlikdan ko'ra ko'proq masxarani anglatuvchi bu belgi biroz haqoratli. Keyingi ishora: Bosh barmoq keskin yuqoriga ko'tarib, mushtga qisilgan qo'l la'nat sifatida qabul qilinadi. Ma'lumotning maxfiy xususiyatini og'zaki bo'lmagan tarzda ta'kidlash uchun inglizlar ko'rsatkich barmog'i bilan burnini uradi. Shunday qilib, boshqa millat vakillari bilan to'g'ri muloqot qilish uchun imo-ishoralarni o'rganish muhim deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.A.Qurbanov: "Noverbal muloqotni ifodalovchi vositalar" Andijon 2021
2. M.A.Qurbanov: "Imo ishora muloqotida milliylikni ifodalash" Andijon 2021
3. Yildirim İ. İletişim. Üçüncü kısım. –Ankara: Hacette'e Üniversitesi, 2017. –S. 18.

4. Eryılmaz D., Darn S. A Nonverbal Communication Lesson. –Izmir. CELTA, 2005. URL: <http://www.researchgate.net/publication/267255400> (murojaat sanasi: 23.02.2020).
5. Mehrabian A. Silent Messages: Im'licit Communication of Emotions and Attitudes (angl.). 2-nd. Belmont, CA: Wadsworth, 1980. –'. 76.

AMERIKA HIKOYANAVISLIGINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Nasridinova Sitora Utkirovna,
ZARMED Universiteti Tillar kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqola qisqa hikoya janrining Amerika adabiyotiga kirib kelishi, hozirgi davrga qadar uning keng qo'llanilishi bilan boshlanib, ushbu janrda ijod qilgan yozuvchilar, ularning Amerika hikoyanavisligiga qo'shgan ulkan hissasi, qolaversa, ularning hikoyalarida Amerika orzusi tushunchasi to'g'risida fikr yuritilgan. Bundan tashqari, Amerika hikoyalarida mavzu va g'oyalar xilma-xilligi, kinoya va parodiyani yetarli darajada aks ettira olish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Amerika adabiyoti, hikoya, kutilmagan nihoya, milliy-madaniy qarashlar, o'ziga xos yozuv uslubi, Amerika orzusi, kinoya, yumor.

Amerika adabiyotida roman janrining rivojlanish tarixi taxminan ikki yuz yilni tashkil etadi. U o'zining butun taraqqiyoti davomida jiddiy o'zgarishlarni boshdan kechirdi, hali ham rivojlanishda davom etmoqda, yangi badiiy yechimlarni talab qiladigan muammolarni ilgari surmoqda. Adabiy tanqidchilikda yetakchi atama "short story" - qisqa hikoya bo'lib, uning rivojlanishiga ma'lum ijtimoiy va iqtisodiy shart-sharoitlar ham turtki bo'lgan desak mubolag'a bo'lmas. Qo'shma Shtatlarda qisqa hikoya atamasi deyarli ildiz otmagan va juda kam qo'llanilgan. Mashhur amerikalik yozuvchi K.Porter o'zining hikoyalar to'plamining so'zboshida shunday yozadi: "We have four titles, exhaustives next division: short story, long stories, short novels, novels". "Story" atamasi Henri Jeyms tomonidan qo'llanilgan bo'lib, u o'zining kitobini "Daisy Miller: and other stories" deb nomlagan. XX asrning boshidan boshlab "story" yanada kengroq qo'llanila boshlandi. "...was born the American short story, new genre, something distinctively and unquestionably our own in the world of letters"[1;3]. Adabiy tanqidchilikda "novella" atamasi bilan bir qatorda: o'zbek tilida – hikoya, qissa, rus tilida – rasskaz, fransuz tilida – contre, nemis tilida – Geschichte, Kurzgeschichte, ingliz tilida – story, short story, short-short story, long story, long short story kabi atamalar mavjud. Har qanday milliy adabiyot singari Amerika adabiyoti ham o'tmish asosida rivojlandi. Aynan an'analar hozirgi zamoni badiiy o'zlashtirishga yordam beradi va shu bilan zamonaviy qissa mazmuni va shakliga kiradi.

XIX asrning birinchi yarmidagi Amerika adabiyotida qissa janri muhim o'rin egalladi. Bu janrda V. Irving, N. Xotorn, G. Melvill va ushbu janr nazariyasining asoschisiga aylangan E. Alan Po kabi yozuvchilar samarali ijod qildilar. Edgar Allan Poning nomi Amerika hikoyalari kompozitsion tamoyillarining ochilishi bilan bevosita bog'liq. E.Po qisqa hikoyalar yaratishda

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

	JIHATLARI Shavkatjonova Rohatoy Shavkatjon qizi	
85.	THE ART OF STYLISTIC DEVICES IN LITERATURE <u>Samatova Zulhumor</u>	269
86.	The Language of War: Exploring the Evolution and Impact of English Military Terms Axmadjonov Abduqodir	273
87.	THE MAIN ISSUES OF COMPILING A DICTIONARY Gofurova Sarvara Madaminjonovna	275
88.	THE USE OF LEXICAL STYLISTIC DEVICES IN MARK TWIN'S WORKS Gofurova Sarvara Madaminjonovna Aigul Mambetalieva	278
89.	THE IMPORTANCE OF ARCHETYPE STUDIES IN LITERATURE Umarov Umidjon Akram o'g'li	282
90.	BOLAGA NOM BERISH VA UNING ETNOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI Abdullaev Ziyodbek	286
91.	SOME FEATURES OF VERBAL AND NON-VERBAL TYPES OF COMMUNICATION Nigora Khaydarova	288
92.	NOVERBAL MULOQOTNI O'RGANISHNING AHAMIYATI Yaqubjonova Ro'zixon Mirkomil qizi Mirolimova Rahnamo Davronbek qizi	291
93.	AMERIKA HIKOYANAVISLIGINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI Nasridinova Sitara Utkirovna	294
94.	THE INVESTIGATION OF TERMINOLOGY AND ITS SPECIFIC FEATURES Khashimov Shokhjakhon Chang Ming	297
95.	MULTILINGUALISM AND CODE-SWITCHING: NAVIGATING LINGUISTIC DIVERSITY IN CONTEMPORARY SOCIETY Botirova Zebuniso Solijon qizi	302
96.	TILSHUNOSLIKDA KIRITMA VA KIRISHLAR TADQIQI Ibragimova Gulchehra Madaminjanovna	305
97.	ПРОБЛЕМЫ МАШИННОГО ПЕРЕВОДА ФРАЗ И ИДИОМ Исхакова Алия	309
98.	ЎЗБЕК ТИЛИ НЕКРОНИМЛАРИНИНГ НОМИНАТИВ - МОТИВАЦИОН ХУСУСИЯТЛАРИ Кахаров Шухратбек Турсунович	311
99.	FONEMA - LINGVISTIK BIRLIK SIFATIDA Ziyayev Avaz Ixtiyorovich Dilobar Azimova	313
100.	SPORT TERMINLARI ETIMOLOGIYASI VA LUG'AT BOYLIGINI OSHIRISHDAGI O'RNI Mingboyeva Muborakxon Nabiyevna Sagindikova Rahat Jumabayevna	315
101.	BIRIKTIRUV BOG'LOVCHILI BOG'LANGAN QO'SHMA GAPLARDAGI MAZMUNYI MUNOSABATLAR Rozikova Gulbahor Zaylobidinovna	319
102.	INGLIZ TILIDAGI FRAZELOGIZMLARNI TARJIMA QILISH	322